



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

SHUHRATNING "OLTIN ZANGLAMAS" ASARIDAGI
O'XSHATISH VA METAFORALAR TALQINI

Zuxra Rustamova Olimovna

Samarqand davlat universiteti talabasi

E-mail: rustamovazuxra@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'xshatish va metaforalarning o'zbek tilidagi ahamiyati va o'rni, ular haqida tushunchalar berildi. Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida qo'llanilgan iboralaridagi o'xshatish va metaforalar o'rganildi. O'xshatish va metafora o'rtasidagi farqlar ko'rsatib berildi. Asardagi o'xshatishlar va metaforalarga misollar keltirib o'tildi hamda Shuhratning o'xshatish va metaforalarni qo'llashda o'ziga xos uslubi va tili xususiyatlari to'g'risida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, uslub, metafora, o'xshatish, o'xshatish etaloni, frazeologizm.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СРАВНЕНИЙ И МЕТАФОР В РОМАНЕ ШУХРАТА
"ЗОЛОТО НЕ РЖАВЕЕТ"

Зухра Рустамова Олимовна

Студентка Самаркандского Государственного Университета

E-mail: rustamovazuxra@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается значение и роль сравнений и метафор в узбекском языке, даются определения этим понятиям. Исследуются сравнения и метафоры, использованные в идиоматических выражениях романа Шухрата "Золото не ржавеет". Обозначены различия между сравнением и метафорой. Приводятся примеры сравнений и метафор из романа, а также рассматриваются особенности стиля и языка Шухрата в использовании этих тропов.

Ключевые слова: переносное значение, стиль, метафора, сравнение, эталон сравнения, фразеологизм.

INTERPRETATION OF SIMILES AND METAPHORS IN
SHUHRAT'S "GOLD DOES NOT RUST"

Zukhra Rustamova Olimovna

Student at Samarkand State University

E-mail: rustamovazuxra@gmail.com

Annotation: This article examines the significance and role of similes and metaphors in the Uzbek language, providing definitions of these concepts. Similes and metaphors used in





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

idiomatic expressions within Shuhrat's novel "Gold Does Not Rust" are analyzed. The distinctions between simile and metaphor are highlighted. Examples of similes and metaphors from the novel are presented, and the unique stylistic and linguistic features of Shuhrat's use of these figures of speech are discussed.

Keywords: Figurative meaning, style, metaphor, simile, simile standard, phraseologism.

Avvalo, maqolamiz avvalida ba'zi chalkashlik va tushunmovchiliklarni bartaraf qilish uchun metafora va o'xshashlik haqida tushuncha berib o'tamiz. Metafora ko'chishning bir turi bo'lib, mumtoz adabiyotda istiora san'atini hosil qiladi. Masalan, Atoyining "Tamanno qilg'ali la'lingni ko'nglum, Kishi bilmas anikim, qoldi qanda", baytidagi la'l bu istiora san'atini hosil qiladi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida esa u metaforadir. Ana endi o'xshatish nimaligini bilish uchun "yuzing go'zallikda oy kabi" jumlasini tahlil qilsak, yuz bu o'xshatiluvchi predmet, ya'ni o'xshatish obyekti. Oy esa o'xshatuvchi predmet, ya'ni o'xshatish etaloni. O'xshatma belgi (o'xshatish asosi) esa go'zallikda so'zi hisoblanadi. Umuman olganda, oy va yuz o'rtasida o'xshashlik bor va bu o'xshashlik shakl, hajm, maza-ta'm jihatidan emas, ko'rinishi, go'zalligi, jihatidan bir-biriga o'xshaydi. Shoir ham bu ikki predmet o'rtasidagi o'xshashlikka go'zallikni asos qilib oladi. Zotan, ijodkor ahli orasida go'zallik asosiy tematik jihat hisoblanadi. O'xshatish asosidan keyin to'rtinchi unsur bu - o'xshatish vositasi. Yuqoridagi jumlada vosita "kabi" so'zidir.

O'xshatishning mumtoz adabiyotdagi ko'rinishi bu - tashbeh. Uning ham to'rtta shakliy ko'rsatkichlari - unsurlari mavjud bo'lib, ular mushabbah, mushabbahbihi, vajhi shaboh kabilardir. O'xshatish metaforadan o'xshatish vositasi borligi bilan farqalanadi. Shuningdek, o'xshayotgan narsa ham, o'xshatilayotgan narsa ham, albatta, mavjud bo'lishi kerak.

Ana endi Shuhratning "Oltin zanglamas" asariga kelsak, yozuvchi asarining sarlavhasi uchun ham metaforadan foydalanadi. Jamiyatdagi yaxshi va maqtovg'a sazovor, sadoqatli, samimiy kishilar ma'nosi "Oltin" so'ziga ko'chyapti va ko'chishning metafora turini hosil qilmoqda. "zanglamas" so'zi ham metaforaning bir ko'rinishi.

Shuhratning ushbu asaridan ko'rinib turibdiki, yozuvchi asarida xalqona ibora va maqollardan unumli foydalangan. Qolaversa, xalq og'zaki ijodimizni metaforlasiz va o'xshatishlarsiz tasavvur qila olmaymiz.

Yozuvchi insonning ma'lum bir holatini boshqa bir holat bilan qiyoslashga juda mohirdir. Masalan, Shuhrat biror-bir shaxs yoki predmetni tavsiflayotganda sifat so'z turkumi, balki uning yonidan o'xshatish va metaforalardan unumli foydalanadi: **xomush** - uyqudan yangi turgan kishidek, yoki o'yinchog'I suvga oqib ketgan boladek, **mos** - nodir kitobning bo'sh varog'iday, **yarashiqsiz** - bo'z ko'ylakka sadaf tugma qadagandek, **vazmin** - qo'rg'oshin quyilgandek, **kamgo'sht** - shaftoli qoqidek, **ozg'in** - kechagina barmog'idan zo'rg'a siqqan uzukning bugun barmog'idan tushsa tushib qolguday...

Yoki asarda ot so'z turkumiga doir so'zlarning ham ma'lum bir holatga o'xshatilishi kuzatiladi: **tabassum** - bemehr o'gilning sovuq o'g'lini erkalashidek, **ko'ngil** - chirog'I olib





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

chiqib ketilgan uyday, **tovush** - jonon piyola jarangiday, **viqor** - istasang ish ber, bo'lmasa o'zim topaman degandek va hokazo.

Biz yuqorida otning ma'lum bir holatga o'xshatilishi, sifatning ma'lum bir holatga o'xshatilishini ko'rib o'tdik. Endi esa ma'lum bir voqea-hodisa boshqa voqea-hodisaga o'xshatilishiga misollar orqali javob beramiz. Masalan, Jannat va Sodiqlik o'rtasidagi befarzandlik "oqqa ko'chirayotgan xatingga siyoh to'kilgandek", "shirin deb shimib kelgan obakidandonning taxiri chiqqandek" kabi jumalar orqali ifodalanadi. Va bu juda go'zal va betakror metafora namunalaridir. Yoki Mirsalimning Azizani maqtashi - Kalga o'xshab tarog'ini maqtashiga, Mirsalimning ichini ikki stakan aroq timdalashi- yostiqlik jildiga mushuk bolalarining o'raliqlik qolishiga, Jannatning farzandsizlik xabari doktordan eshitishi - mo'rt stakanga qaynoqlik suv quyishga, Mirsalimday kishining Azizaday farzandi borligi, shoirning ta'biricha, Qarqinoqlikdan bulbul chiqishiga o'xshatiladi. Quyida asardagi o'xshatish va metaforalardan misollar keltiramiz:

- 1) Qo'rg'oshindan quyilgandek (vazmin)
- 2) Jonon piyola jarangidek (tovush)
- 3) Oltin uzukning suvga tushib ketgan uzugiday (Aziza)
- 4) Shirin deb shimib kelgan og'zingdagi obakidandonning taxiri chiqqandek (Jannat va Sodiqlik befarzandligi)
- 5) Oqqa ko'chirayotgan xatingga siyoh to'kilgandek (befarzandlik)
- 6) Kechagina barmog'iga zo'rg'a siqqan uzukning bugun barmog'idan tushsa tushib qolguday (ozgin Jannat)
- 7) Yo'qotgan narsasini birdan topgan kishidek (Jannatning ko'chish xabarini eshitgandagi quvonchi)
- 8) Chirog'i olib chiqib ketilgan uyday (ko'ngil, Sodiqlik ishdan ketishi)
- 9) O'yinchog'i suvga oqib ketgan boladek (xomush)
- 10) Koptokday yerga ursa ko'kka sakraydigan (Sodiqlik yoshligi)
- 11) Ochsa kaftida, yumsa mushtumida yo'q
- 12) Shaftoli qoqidek (kamgo'sht kotiba)
- 13) Shu qush bolasi uyasidan tushib ketibdi, joyiga olib qo'ymasangiz uvol bo'ladi degandek (ohang, mudir)
- 14) Bemehr otaning sovuqlik o'g'lini erkalashidek (tabassum)
- 15) Qarqinoqlikdan bulbul chiqishi (Sodiqlik odamning Azizadek qizi bo'lishi)
- 16) Istasang ish ber, bo'lmasa o'zim topaman degandek (Sodiqlik viqori)
- 17) Ko'r sening uchun qanchalik kuyib pishyapman degandek (Mirsalimning kirishi)
- 18) Bo'z ko'ylakka sadaf tugmacha qadagandek yarashmas edi.
- 19) Ko'ylakning olovidan bag'riga tushgan uchqunni kul bosgandek bo'ldi (Qodir va Aziza o'rtasidagi munosabat)
- 20) Yostiqlik jildiga o'ralib qolgan mushuk bolasiday (ikki piyola aroqlik Mirsalimning ichini timdalashi)
- 21) Vaqlik - sevgi doyasi





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

- 22) Kal taranguncha to'y tarqaladi degandek
 - 23) Nodir kitobning qo'sh varog'iday (mos)
 - 24) Jim yotgan ilonning boshini qo'zg'ashi (Azizaning Qodir haqida ota-onasiga aytishi)
 - 25) Ko'rpa yostig'ingni qoplay ber (to'yga tayyorlanaver)
 - 26) O'z namiga o'zi sirg'laib yurmasin
 - 27) Quruq xazom emas sal yelga uchadigan (Aziza)
 - 28) Yolg'on bo'lsa Karl Marks bilan engels ursin
 - 29) Jo'jalarni katakda boqishdek gap - darslik bilan kifoyalanish
 - 30) Qo'shningg tovug'i g'oz ko'rinadi degandek (Sodiqning Mirsalimga ko'rinishi)
 - 31) Xazinaga yo'liqqan gadoydek (Mirsalimning shoshib qolishi)
 - 32) Mo'rt stakanga qaynoq suv quyishdek gap
 - 33) Uyqudan yangi turgan kishidek xomush
 - 34) O'g'ri mushuk
 - 35) Sirg'ansa oyoq tirab qolishga joy tayyorlayapti
 - 36) Og'ziga taxir narsa chiqib qolgandek yuzini burishtirishi
 - 37) Chumoli uyasiga tushib qolgan pashshaga o'xshardi
 - 38) O'tmas boltaga kunda tushira berishi
 - 39) Kalga o'xshab tarog'inngizni maqtaybermang
 - 40) Bir chelak suvni zaharlashga yetardi.
- Ko'rinib turidiki, Shuhrat o'xshatish va metaforalarni yaratishda o'ta iste'dodli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdalimova Sh, Rahimova Z. O'xshatish vositalarining lingvistik xususiyatlari. Solution of social problems in management and economy. 34-38
2. Bozorova G. Badiiy o'xshatishlarning lisoniy xususiyatlari. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 1285-1293.
3. Shuhrat. Oltin zanglamas. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti 2021, 520 b.

